

BARQAROR RIVOJLANISHDA XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT

Boboqulova Durdona Sanjar qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Karimova Iroda Kamol qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Abduraxmanova Nozima Akbar qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Annottatsiya: Mazkur maqolada barqaror rivojlanish tushunchasi, uning xalqaro va milliy darajadagi ahamiyati hamda amalga oshirish tajribalari tahlil qilinadi. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun dunyodagi ilg'or tajribalar va O'zbekiston misolida amalga oshirilayotgan islohotlar o'rganiladi. Shuningdek, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlar bo'yicha mavjud yutuqlar va muammolar yoritiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, milliy darajadagi barqaror rivojlanishni kuchaytirish bo'yicha amaliy takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, xalqaro tajriba, milliy amaliyot, ekologik barqarorlik, iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy rivojlanish.

Kirish. Bugungi kunda barqaror rivojlanish global muammolar qatorida eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan 2015-yilda qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM-2030) butun dunyo davlatlari uchun muhim yo'nalish bo'lib, ekologik barqarorlik, ijtimoiy tenglik va iqtisodiy taraqqiyotning uyg'unligini ta'minlashni ko'zda tutadi. Barqaror rivojlanishning asosiy maqsadi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda kelgusi avlodlar uchun barqaror iqtisodiy va ijtimoiy muhit yaratishdir. Ushbu konsepsiya bir vaqtning o'zida ekologiya, iqtisodiyot va ijtimoiy barqarorlikni qamrab olgan bo'lib, rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlar uchun dolzarb masala sanaladi.

O'zbekiston ham barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. Mamlakatda "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi", 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha farmonlari doirasida qator tashabbuslar ilgari surilmoqda. Jumladan, Prezidentning "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan barqaror rivojlanish maqsadlari to'g'risida"gi

qarori barqaror rivojlanish bo'yicha milliy strategiyaning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Shuningdek, 2023-yil 9-iyundagi PF-101 "O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi farmon ekologik barqarorlikni oshirish va uglerod neytralligiga erishish bo'yicha muhim hujjat hisoblanadi. Shu bilan birga, "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiysi" doirasida ekologik barqarorlikka erishish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Ushbu maqolada jahon tajribasi hamda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barqaror rivojlanish siyosati tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Barqaror rivojlanish bo'yicha xalqaro miqyosda ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, J. Rokstrem va uning hamkasbleri (2009) "Planetary boundaries" konsepsiyasida barqaror rivojlanishning ekologik chegaralarini belgilab berdi. Ular inson faoliyati tufayli global ekologik me'yordarning buzilishi natijasida yuzaga keladigan tahdidlarni tahlil qildi va sayyoramiz barqarorligini ta'minlash bo'yicha muhim tavsiyalar berdi. BMTning "Barqaror rivojlanish bo'yicha global hisobotlari" esa har yili jahon davlatlarining BRM-2030 doirasidagi taraqqiyotini tahlil qiladi. Ushbu hisobotlar davlatlarning ekologik barqarorlik, ijtimoiyadolat va iqtisodiy o'sish bo'yicha erishgan yutuqlari hamda duch kelayotgan muammolarini ko'rsatib beradi. Evropa Ittifoqi (EI) doirasida barqaror rivojlanish bo'yicha amalga oshirilgan strategik hujjatlar, xususan, Yevropa Yashil Bitimi (European Green Deal), Barqaror rivojlanish bo'yicha 2030 kun tartibi, uglerod neytralligiga erishish bo'yicha davlatlarning majburiyatlarini belgilab bergen. Germaniya, Shvetsiya va Daniya kabi davlatlar ushbu bitim doirasida qayta tiklanuvchi energetika, chiqindilarni qayta ishslash va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ilg'or tajribalarini joriy qilmoqda. Milliy darajada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" hamda 2019-yilda tasdiqlangan O'zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlari strategiyasi muhim hujjatlar hisoblanadi. Ushbu strategiyalar mamlakat iqtisodiyotining ekologik barqarorligini oshirish, uglerod izini kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishni ko'zda tutadi. Shuningdek, mahalliy olimlar, jumladan, A. Axmedov va Sh. Normatovlarning tadqiqotlarida O'zbekistonda ekologik barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyot muammolari tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlarida sanoatning ekologik yuklamasi, tabiiy resurslardan foydalanishning oqibatlari va iqtisodiy islohotlarning samaradorligi haqida batafsil tahlillar keltirilgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar esa iqlim o'zgarishi, bioxilmaxillikni saqlash va chiqindilarni qayta ishslash masalalariga bag'ishlangan. Mazkur adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, xalqaro tajribalarni o'rganish va

ularni milliy strategiyalarga integratsiya qilish barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodlari. Mazkur maqolada barqaror rivojlanish bo‘yicha xalqaro va milliy tajribalarni tahlil qilish hamda ularning samaradorligini baholash uchun turli usullar qo‘llanildi. Maqola quyidagi metodologik asoslar bo‘yicha amalga oshirildi:

1. Tahliliy yondashuv – xalqaro va milliy darajadagi barqaror rivojlanish strategiyalari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda tadqiqot ishlarining tahlili amalga oshirildi. Xususan, BMT, Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish bo‘yicha hujjatlari o‘rganildi.

2. Empirik tahlil – O‘zbekiston va boshqa mamlakatlarning barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlari, statistik ma’lumotlari va xalqaro indekslar asosida o‘rganildi. Jumladan, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari indekslari, Global yashil iqtisodiyot indeksi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida analiz qilindi.

3. Taqqoslash usuli – rivojlangan mamlakatlarning barqaror rivojlanish siyosati bilan O‘zbekiston tajribasi solishtirildi. Jumladan, Germaniya, Shvetsiya, Daniya va Janubiy Koreyaning yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha siyosati O‘zbekiston strategiyasi bilan taqqoslandi.

4. Ekspert suhbatlari va intervylular – soha mutaxassislari, iqtisodchilar va ekologlar bilan barqaror rivojlanish bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyihalarining samaradorligi yuzasidan fikr almashildi.

5. Hujjatlarni o‘rganish – O‘zbekiston Respublikasining quyidagi normativ-huquqiy hujjatlari tadqiqotga asos bo‘ldi:

- 1) “2030-yilgacha bo‘lgan barqaror rivojlanish maqsadlari” to‘g‘risidagi Prezident qarori;
- 2) “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (PF-101, 2023-yil);
- 3) “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiysi”;
- 4) “Iqlim o‘zgarishiga moslashish milliy strategiyasi”.

6. SWOT-tahlil – O‘zbekistonning barqaror rivojlanish yo‘nalishidagi kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlar va tahdidlar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar: Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun xalqaro tajriba va milliy strategiyalar tahlili muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, rivojlangan davlatlar ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirayotgani kuzatildi. O‘zbekiston ham o‘zining milliy strategiyalarida ushbu tamoyillarni inobatga olgan holda, barqaror rivojlanish yo‘lida muhim qadamlarni qo‘ymoqda.

Xalqaro tajriba tahlili: Jahon tajribasidan kelib chiqib, quyidagi asosiy yo‘nalishlar barqaror rivojlanishda muhim omil sifatida baholanadi:

Germaniya va Skandinaviya davlatlari – energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish bo‘yicha yetakchi davlatlar hisoblanadi. Germaniya “Energiewende” dasturi doirasida qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish orqali uglerod chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirdi.

Janubiy Koreya – yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun davlat investitsiyalarini oshirish bo‘yicha muvaffaqiyatli tajribaga ega. Ular yashil texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda.

Xitoy – barqaror rivojlanish yo‘lida sanoatni “yashil”lashtirish, energiya samaradorligini oshirish va uglerod neytralligiga erishish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekistonda barqaror rivojlanish bo‘yicha natijalar: O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo‘yicha qator huquqiy va institutsional asoslar yaratilgan. Jumladan:

1. Prezidentning 2030-yilgacha bo‘lgan barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha qarori – ushbu hujjat milliy strategik maqsadlarni belgilaydi va ekologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatadi.

2. PF-101-sonli “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (2023-yil 9-iyun) – mamlakatda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va uglerod neytralligiga erishish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilaydi.

3. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiysi – ekologik barqarorlikni oshirish, chiqindilarni kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

4. Iqlim o‘zgarishiga moslashish milliy strategiyasi – iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan.

Statistik ma’lumotlar va tahliliy natijalar: 2022-yil ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi 10% ga yetgan bo‘lsa, 2030-yilga borib bu ko‘rsatkich 25-30% ga yetishi kutilmoqda. O‘zbekiston Global yashil iqtisodiyot indeksida oxirgi uch yil ichida 12 pog‘onaga ko‘tarilgan, bu esa mamlakatda ekologik islohotlarning samaradorligini ko‘rsatadi. Iqtisodiy barqarorlik nuqtayi nazaridan, O‘zbekiston 2022-yilda yashil obligatsiyalar chiqarish orqali xalqaro investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha yangi bosqichga o‘tdi.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston barqaror rivojlanish yo‘lida muhim qadamlarni tashlagan bo‘lsa-da, hali ko‘plab muammolarni hal qilish talab etiladi. Xususan, ekologik texnologiyalarni ommaviy joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va sanoatda uglerod chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar zarur.

Xulosa va takliflar: Barqaror rivojlanish bugungi kunda nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki ekologik muvozanat va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashning muhim mezoni hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlar barqaror

rivojlanishning har uch jihatiga – iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlikka teng e’tibor qaratish orqali yuqori natijalarga erishmoqda. O’zbekiston ham bu borada qator muhim qadamlarni tashlamoqda va o‘ziga xos strategiyalarni shakllantirib kelmoqda.

1. Normativ-huquqiy asoslar mustahkamlanmoqda – O’zbekiston Prezidenti tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlar barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” va “Iqlim o‘zgarishiga moslashish milliy strategiyasi” ekologik islohotlarni jadallashtirishga yordam bermoqda.

2. Qayta tiklanuvchi energetika rivojlanmoqda – mamlakatda quyosh va shamol elektr stansiyalarining qurilishi energiya xavfsizligini ta’minalashga va uglerod chiqindilarini kamaytirishga hissa qo‘shamoqda.

3. Ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash yo‘lida qadamlar tashlanmoqda – aholining ekologik savodxonligini oshirish, yashil texnologiyalarni targ‘ib qilish va innovatsion yechimlarni joriy etish bo‘yicha davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

4. Muammolar saqlanib qolmoqda – barqaror rivojlanishning asosiy muammolari orasida ekologik texnologiyalarning yetarlicha rivojlanmagani, sanoat chiqindilarining kamaytirilmagani va suv resurslaridan oqilona foydalanish muammolari mavjud.

Amaliy takliflar:

1. Ekologik texnologiyalarni yanada rivojlantirish – sanoat korxonalarida ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va uglerod chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish.

2. Barqaror rivojlanish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish – Germaniya, Janubiy Koreya va Skandinaviya davlatlari tajribasidan foydalanish, xalqaro grantlar va investitsiyalarni jalb qilish.

3. Qayta tiklanuvchi energiya loyihibarini qo‘llab-quvvatlash – quyosh va shamol elektr stansiyalarining ulushini oshirish, energiya tejamkor qurilmalarni subsidiyalash.

4. Aholining ekologik ongi va savodxonligini oshirish – ekologiya fanlarini maktab va oliy ta’lim dasturlariga kengroq kiritish, ommaviy axborot vositalarida ekologik muammolar bo‘yicha ko‘proq targ‘ibot olib borish.

5. Suv va yer resurslarini tejash strategiyasini ishlab chiqish – qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish va yer degradatsiyasining oldini olish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish.

Ushbu takliflarni amalga oshirish natijasida O’zbekiston barqaror rivojlanish bo‘yicha xalqaro reytinglarda o‘z pozitsiyasini yanada mustahkamlashi va ekologik xavfsizlikni ta’minalashi mumkin. Kelgusida barqaror rivojlanish yo‘lida olib boriladigan siyosat nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik va ijtimoiy farovonlikni ham ta’minalashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. BMT (2023). Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha global hisobot. <https://sdgs.un.org/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni (2023-yil 9-iyun). Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori (2022-yil 20-iyul). 2030-yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiysi.
4. Xalqaro energetika agentligi (IEA) (2022). Qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha yillik hisobot. <https://www.iea.org/>
5. Jahon banki (2023). O'zbekistonda barqaror rivojlanish va iqtisodiy islohotlar. <https://www.worldbank.org/>
6. Germaniya hukumatining "Energiewende" dasturi (2023). Barqaror energiya tizimiga o'tish bo'yicha milliy strategiya. <https://www.bmwi.de/>
7. Xitoy hukumati (2022). Uglerod neytralligiga erishish bo'yicha milliy rejalar.
8. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2023). O'zbekistonda ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlari.
9. UNDP (2023). O'zbekistonda iqlim o'zgarishi va barqaror rivojlanish bo'yicha milliy strategiyalar. <https://www.undp.org/>